


**NAVOIY VILOYATININGINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-mart\*)*

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1301,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 151,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 71,1 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1150,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 1,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 183,7 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.




\*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Xatirchi, Navbaxor, Karmana tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1301,7</b>	<b>151,7</b>	<b>11,7</b>	<b>1150,0</b>	<b>88,3</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	489,8	144,3	29,5	345,4	70,5
Zarafshon shahar	103,6	1,7	1,6	102,0	98,4
Karmana tuman	203,6	0,8	0,4	202,9	99,6
Konimex tuman	35,4	0,2	0,6	35,2	99,4
Qiziltepa tuman	149,7	2,6	1,7	147,1	98,3
Navbahor tuman	69,1	0,2	0,3	68,9	99,7
Nurota tuman	46,4	0,6	1,4	45,8	98,6
Tomdi tuman	8,3	0,1	0,8	8,2	99,2
Uchquduq tuman	50,1	0,2	0,4	49,9	99,6
Xatirchi tuman	145,6	1,1	0,7	144,6	99,3

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,1 % ga o'sdi va 151,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,7 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1150,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %



Joriy yilning yanvar-mart oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,7%), Uchquduq (99,6%), Karmana (99,6%), Konimex (99,4%) va Xatirchi (99,3%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (29,5 %) va Qiziltepa (1,7 %) tumanida kuzatilgan.

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 301,7</b>	<b>1 299,8</b>	<b>1,9</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	489,8	487,9	1,9
Zarafshon shahar	103,6	103,6	-
Karmana tuman	203,6	203,6	0,03
Konimex tuman	35,4	35,4	-
Qiziltepa tuman	149,7	149,7	-
Navbahor tuman	69,1	69,1	-
Nurota tuman	46,4	46,4	-
Tomdi tuman	8,3	8,3	-
Uchquduq tuman	50,1	50,1	-
Xatirchi tuman	145,6	145,6	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar-mart**



**2019 yil yanvar-mart**



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-mart oylarida 1299,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-mart oylarida 1,9 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,02 foizga kamaydi.

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,3 mln. so'mni tashkil etdi.

O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy shahri (3,6 mln. so'm), Karmana tumani (1,6 mln. so'm) va Uchquduq tumanida (1,3 mln. so'm) kuzatildi.


#### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	<b>Aholi jon boshi (ming sum)</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 326,8</b>	<b>105,1</b>
Navoiy shahar	3 588,2	114,9
Zarafshon shahar	1 254,5	101,5
Karmana tuman	1589,6	99,1
Konimex tuman	1008,4	100,4
Qiziltepa tuman	1001,9	99,9
Navbahor tuman	623,5	100,7
Nurota tuman	508,8	100,3
Tomdi tuman	569,7	100,4
Uchquduq tuman	1351,4	100,7
Xatirchi tuman	744,6	100,8




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (37,6 foiz), Karmana tumani (15,6 foiz), Qiziltepa tumani (11,5 foiz), Xatirchi tumani (11,2 foiz), va Zarafshon shahri (8,0 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida  
viloyat hududlarining ulushi, %**



Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 %ni tashkil etib, 34,6 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari  
savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 3,4 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,7 % ga kamaygan), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 31,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %), tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahri, Qiziltepa tumani va Xatirchi tumanini misol keltirishimiz mumkin.



**Mulkchilik shakli bo'yicha  
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>34,6</b>	<b>33,4</b>	<b>1,2</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	15,1	13,9	1,2
Zarafshon shahar	4,6	4,6	-
Karmana tuman	5,9	5,9	0,03
Konimex tuman	0,6	0,6	-
Qiziltepa tuman	2,6	2,6	-
Navbahor tuman	1,0	1,0	-
Nurota tuman	0,7	0,7	-
Tomdi tuman	0,4	0,4	-
Uchquduq tuman	1,2	1,2	-
Xatirchi tuman	2,5	2,5	-

**Navoiy viloyatida mulkchilik  
shakli bo'yicha ovqatlanish  
korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)**

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-mart oylarida 33,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,3 foizga ko'paydi.


Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-mart oylarida 1,2 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,3 foizga kamaydi.

### **NAVOIY VILOYATININGINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-mart\*)*

2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 416,3 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 189,6 % ga o'sdi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi , (mlrd.so'm)**




\*-dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, 260,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 martaga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 62,6 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 37,4 % ni tashkil etdi.

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Qiziltepa tumani, Karmana tumani, Zarafshon shahri, Konimex tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'sish sur'atlari, %**



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Qiziltepa tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi**

	<b>Jami (mlrd.so`m)</b>	<b>Kichik korxonalar (mlrd.so`m)</b>	<b>Ulushi, %da</b>	<b>Yirik korxonalar (mlrd.so`m)</b>	<b>Ulushi, %da</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>416,3</b>	<b>155,5</b>	<b>37,4</b>	<b>260,8</b>	<b>62,6</b>
Navoiy shahar	317,4	56,7	17,9	260,7	82,1
Zarafshon shahar	8,7	8,7	100,0	-	-
Karmana tuman	48,9	48,9	100,0	-	-
Konimex tuman	2,1	2,1	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	13,2	13,1	99,5	0,1	0,5
Navbahor tuman	13,4	13,4	100,0	-	-
Nurota tuman	1,5	1,5	100,0	-	-
Tomdi tuman	0,3	0,3	100,0	-	-
Uchquduq tuman	2,2	2,2	100,0	-	-
Xatirchi tuman	8,6	8,6	100,0	-	-


Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 317,4 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 barobarga oshdi).

**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha  
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>416,3</b>	<b>416,1</b>	<b>0,2</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	317,4	317,4	-
Zarafshon shahar	8,7	8,7	-
Karmana tuman	48,9	48,7	0,2
Konimex tuman	2,1	2,1	-
Qiziltepa tuman	13,2	13,2	-
Navbahor tuman	13,4	13,4	-
Nurota tuman	1,5	1,5	-
Tomdi tuman	0,3	0,3	-
Uchquduq tuman	2,2	2,2	-
Xatirchi tuman	8,6	8,6	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo  
tovar aylanmasi ulushi, (%)**

**2018 yil yanvar-mart**



**2019 yil yanvar-mart**






Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-mart oylarida 416,1 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,03 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-mart oylarida 0,2 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,03 foizga kamaydi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (76,2 foiz), Karmana tumani (11,7 foiz) va Navbahor tumani (3,2 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (0871) 230-84-36